

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMİDAGI MILLİY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI
FAN O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi: 150 000 – San'at
Ta'lif yo'naliishi: 70210901 – Bastakorlik san'ati

Fan/modul kodi MFM1103	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 3	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	30	60	90
2.	I. Fanning mazmuni Magistr bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - magistr ta'lif yo'nalishlarining Bastakorlik san'ati ixtisosliklari bo'yicha tahsil oladigan magistrler uchun mo'ljallangan. Dastur Davlat ta'lif Standartlariga binoan san'at sohasida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalarini asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniлади. Magistraturada o'tiladigan "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining maqsadi, – Kompozitorlik haqida mukammal bilimlarni o'rgatishdan iborat, olgan bilimlarni va ko'nikmalarini kelajakda o'zining professional malakalarini rivojlantirishlarida va ijodiy faoliyatlarida ishlashidir. Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lif standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan: - bastakorlik, musiqa yaratish san'ati; - notografiya; - bastakorlik san'atida "Ustoz-shogird an'analarini"; - musiqiy kompozitsiya asoslari; - musiqiy asarlarni yaratish jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - o'quvchi-shogird iqtidorini aniqlash tamoyillarini; - faktura va garmoniyalash tushunchasini singdirish va amaliy mashqlar tizimini; - musiqiy mavzu va uni rivojlantirish uslublarini; - kompyuter nota dasturlari bilan ishlashni; - yaratilgan asar qo'lyozmasini nota muharriri dasturlari yordamida terishni va audio eksportini tinglashni; - kuyni garmoniyalash, tabiiy ladlar garmoniyasining turlanishini bilishi va ularidan foydalana olishi;			

II. Asosiy qism

1-Mavzu. Bastakorlik ijodiyotining mohiyatini o'rgatish

Bastakorlik san'ati ixtisosligi bo'yicha, ya'ni kelajakda bastakor kasbini egallaydigan ijodkor insonni tarbiyalash jiddiy va mas'uliyatlari vazifa. Eski davrlardan bizgacha o'tib kelayotgan naqlida - «... hyech qanday darslik kompozitorni tarbiyalashga yordam bera olmaydi, yosh inson faqat kimningdir shogirdi bo'lib, o'shaning maktabini amaliy o'rganishi, o'zining keyingi ijodiy izlanishlari natijasida ustozidan o'sib ketishi, musiqa taraqqiyotiga hissasini qo'shishi mumkin», deb ta'kidlangan. Ijodkorlik yo'lida kichik bir ko'nikmalarni o'zlashtirishda amaliy namunalar sifatida qo'llanmalar tuzish mumkindir, bu ham davr talabiga asoslanadi, albatta.

Bastakorning kasbiy yetukligi - uning estetik qadriyat nima ekanligini, insonlar tinglab zavqlanishi uchun o'zi nima qoldirishi mumkinligini, zarur kompozitorlik texnikasiga ega bo'lganligini, yaratgan asarlarida shakl-shamoyilni, janr talablarini ilg'ab olganligini, zamonaviy musiqa uslublarida, texnikasida ko'nikmalarli borligini, qolaversa, eng asosiysi o'z milliy musiqiy madaniy merosidan habardor ekanligini anglay bilishi bilan bog'liq. Yirik shakldagi kamer asarlar, simfonik asarlarni o'rgatish va tahlil qilish.

2-Mavzu. Partituralarni o'qitishni o'rgatish

Partituralarni tahlil qilish, amaliy o'rganish va fortepianova chalish bo'yicha dars bera olish. Zamonaviy kompozitorlikda uchraydigan usullar. Minimalizm uslublarida yozilgan asarlar. Turli musiqiy kalitlar va orkestr guruhlari mutanosibligidagi nota materiallari. Alovida orkestr tovushlarini transpozitsiyasi.

Oraliq nazorat

Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Bastakorlik fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish va ularni taxlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish.

3-Mavzu. Aranjirovka asoslarini o'rgatish uslubiyoti

Elektr-musiqa cholg'ulari: gitara, sintezator, midi klaviaturalar haqida ma'lumot berishni o'rgatish. Ushbu musiqiy cholg'ularning ijro imkoniyatlari va ular bilan ishslash yo'llarini o'rgatish.

Cubase, Nuendo singari kompyuter dasturlari yordamida tovushlar, ovozlar va tembrlarni yaratishni o'rgatish.

4-Mavzu. Cholg'ulashadirishni o'rgatish

Cholg'ular guruhi uchun cholg'ulashadirish vazifalarini bajarish, uning simfonik orkestrdagи о'rni aniqlashni o'rgatish uslubiyoti. Tembrni o'zgartirish usullarini o'rgatish

5-Mavzu. Musiqiy sahna asarlari dramagurgiyasini o'rgatish

Musiqada mavzuviylik va uni asarlarda rivojlantirish yo'llarini o'rgatish. Musiqiy vositalari orqali badiiy obrazlarni yaratish. Opera librettosi. Musiqiy sahna dramaturgiyasini tuzishni o'rgatish. Ariyalar, ariozolar, qo'shiqlar, ansambllar, simfonik-cholg'u kuylar tizimini o'rgatish.

Balet librettosi. Baletlarda musiqiy sahna dramaturgiyasini tuzish. Musiqiy tavsiyalar tizimi.

Dramatik pesalar janrini aniqlashni o'rgatish. Musiqiy kuylar, ariyalar, qo'shiqlar, duetlar va xor sahnalarining tizimini o'rgatish

Yakuniy nazorat

Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Bastakorlik fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish va ularni taxlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish.

III. Mustaqil ta'limga tashkil etishning shakl va mazmuni

Ushbu fan bo'yicha o'rganilgan bilimlar yakka (amaliy) mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab boriladi. Xususan, har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlарини takroriy tajribalar (repetisiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

Yakka (amaliy) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetisiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'naliishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvni namunalarni turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

IV.Mustaqil ta'limga mustaqil ishlar

1. Milliy musiqani bastalash asoslari.
2. Zamonaviy musiqani bastalash asoslari.
3. Estrada musiqasini bastalash asoslari.
4. Zamondosh kompozitor va bastakorlarning ijod namunalarini tinglash va tahlil qilish.

<p>3.</p>	<p style="text-align: center;">V. Ta'lif natijalari /Kasbiy kompetensiyalari magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - nota yozuvining zamonaviy uslublari asosida yaratilgan asarlar; - musiqiy janrlar va shakllarning ilmiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - zamonaviy bastakorlar ijodidagi janrlar va uslublarni ilmiy tahlil qilishni; - zamonaviy musiqada vujudga kelgan yangi janr va uslublarni; - turli davrlarning kompozitorlik yozuvi usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - turli janrlarda kompozitsion nuqtai nazardan mantiqan to'g'ri tuzilgan kamer va yirik shakldagi musiqa asarini yaratish (kvartet, kvintet, poema, kontsert, simfoniya, kantata, oratoriya, musiqiy sahna asarlari va boshqalar) ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
<p>4.</p>	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • guruhli mashg'ulotlar; • Interfaol aqliy hujum; • Visual akustik va shahsiy oriyentasiy tehnologiyasi • kollokvium; • ijodiy asar ijrosi.
<p>5.</p>	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
<p>6.</p>	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Месснер Е. Основы композиции. М., 2001. 2. Назайкинский Е.В. Логика музыкальной композиции. М., «Музыка», 1982. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Евлахов О. Проблемы воспитания композитора. Л., 1963. 2. Turli mualliflar. Jahon va o'zbek kompozitorlarining turli janrlardagi yuzlab asarlari klavirlari, partituralari. XIX-XXI asrlar. <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.youtube.com

	<p>2. http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musika 3. www.musika.uz 4. http://portasound.ru/music-search/musika-olami 5. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 6. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p>
7.	Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil <u>«30»</u> <u>aqsaqt</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: X.I.Nazarov - O'zDK huzuridagi MESI, «Kompozitor va aranjirovka» kafedrasи mudiri, dotsent
9.	Taqrizchilar: X.A. Tursunova. – O'zDK, « Kompozitorlik va cholg'ulashtirish » kafedrasи professori